

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ZIGMUND FREYD
(1856-1939)

Mening dunyom befarqlik
ummonida suzib yuruvchi
kichik og'riq oroli!

2022

MAY

№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
25-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-25**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-25**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ГЕОГРАФИЯ

1. Rahmonova Intizor Otayevna, Allamova Manzura Abdullayevna GEOGRAFIYA DARSLARDA TURLI GEOGRAFIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	7
2. Mavlyanberdiyeva Sayyora Boboxanovna AHOLI GEOGRAFIYASI: KECHA VA BUGUN.....	9
3. Shahzodaxon Nurbuvayeva GEOGRAFIYA FANIDAN O'QUVCHILARNI OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA TAYYORLASHNING YO'L-YO'RIQLARI.....	11



ГЕОГРАФИЯ

GEOGRAFIYA DARSLARDA TURLI GEOGRAFIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Rahmonova Intizor Otayevna

Xorazm viloyati Xiva shahar

10-son maktabining Geografiya fani o'qituvchisi

Allamova Manzura Abdullayevna

Xorazm viloyati Xiva shahar

5-son maktabining Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya darslarida turli geografik o'yinlarni qo'llash orqali ularning bilim ko'nikmalarini mustahkamlash, darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkinligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: geografiya, geografik o'yin, dars, karta, atlas, bilim, doska, xotira.

Geografiya fani - yer deb atalmish hayot maydoniga aylangan borliqni o'rganuvchi fan bo'lib, bu fanni o'rganishga har bir davr ziyolilari o'z qarashlari bilan yondashganlari aniq. Bugungi kunga kelib geografiyani takomillashtirishga yanada katta e'tibor bilan qaralmoqda. Geografiya – darslarini hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni geografik o'yinlar egallaydi. Geografik o'yinlar nihoyatda xilma xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi. Dars jarayonida tashkil etuvchi fanga doir turli o'yinlar, noan'anaviy darslarning muhim shaklidir. Ular o'quvchilarning shu fanga qiziqishlarini, mehrini kuchaytiruvchi, ularning darsdagi ruhiy toliqishlarini oldini oluvchi ziyaraklik va topqirlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi hamda bilim saviyalarini yanada oshirishga undovchi muhim omil hisoblanadi.

Geografiya darslarida tashkil etish mumkin bo'lgan geografik o'yinlar har bir sinfda mavzuning mazmuniga mos kelishiga e'tibor beriladi. Geografik o'yinlar qaysi turda bo'lmasin o'quvchini mustaqil fikrlashga, aqlini peshlashga o'rgatadi. O'yin turlarining qaysinisini qay vaqtda qo'llash xususida qat'iy ko'rsatma berib bo'lmaydi, chunki geografik o'yinlar har bir darsda mavzuni mazmuniga qarab tashkil etiladi. Geografik o'yinlarni tashkil etganda o'quvchining yosh xususiyati, sa'viyasi o'yin vaqtida hisobga olinadi.

Dars jarayonida o'quvchi ozmi-ko'pmi charchaydi, shu bois uni biroz chalg'itish, ruhiy yengillik berish maqsadida ta'lim usullari qisman o'zgartiriladi, ayniqsa, dars an'anaviy «o'qituvchi - o'quvchi» muloqotiga asoslangan usullarda o'tkazilganda o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida ko'pchilik muallimlar turli xildagi o'yinlardan foydalanishadi.

Ko'p yillardan buyon geografiya darslarida «Xayoliy sayohat», «Topishmoqlar», «Krossvord» va turli xil boshqotirmalarni yechish mashqlari qo'llanib kelinadi. Biz quyida ana shunday geografik o'yinlardan “Krossvord” o'yini haqida to'xtalamiz. Usti yelim qog'oz bilan o'ralgan doira shaklidagi diametri 45-50 sm karton gorizontning asosiy romlari bo'yicha 8 bo'lakka bo'linadi. Har bir bo'lakka 1 dan 8 gacha sonlar ketma-ket belgilanishi shart emas. Qo'yilgan bo'laklarning ichi turli ranglarda, geografik tasvirlar, ma'lumotlar bilan bezatilishi mumkin. Bu doira sinf doskasiga osig'lik bo'lib, uning yonida maxsus xaltachasida qog'oz konvertida 1 dan 8 gacha sonlar yozilgan mayda kartochkalar joylanadi.

Ular har bir son uchun 10-12 tadan yasilib, bizning o'yinimizda xaltachadagi kartochkalarining soni 100 tagacha bo'ladi. O'yin quyidagicha o'tadi. Muallim o'tilgan mavzu bo'yicha bironta izoh, tushuncha yoki joy nomini o'ylab u necha harfdan iborat bo'lsa, doskaga shuncha katakcha chizadi. So'ng o'yin shartlari tushuntiriladi. Partalarning necha qator joylashuviga qarab sinf ikki yoki uch bo'g'ingga bo'linadi. Har bir bog'ning boshlig'i o'z o'quvchilari bilan o'yinni boshqarib, ular



to'plangan ballni doskaga yozib boradi. Avval birinchi bog'ning bir qatorida o'tirgan o'quvchidan biri (kim javob berishini ular o'zaro kelishib oladilar) so'ngra ikkinchi bog'ning birinchi qatori va hokazo javob berishi uchun chaqirilgan o'quvchi topilishi lozim bo'lgan so'zning birona harfini yoki so'zning o'zini aytishi kerak bo'ladi. Avvalo u doskadagi xaltachadan raqam oladi, olgan raqami karton doiradagi bo'laklar sonini belgilaydi. Masalan, birinchi raqamni olgan o'quvchiga o'ylagan so'z qaysi mavzuga bag'ishlanganligini aytib, masalaga biroz yengillik kiritadi. Ikkinchi raqamga tushsa, o'quvchi joyiga qaytib o'tishi kerak, chunki bu raqam navbatni boshqa o'quvchiga berishni talab qiladi. Uchinchi raqamli kartochkalarni olgan o'quvchining omadi keladi, chunki bu o'yin shartiga ko'ra ushbu raqamni olgan o'quvchiga muallimning o'zi so'zning bitta harfini aytib yordam berishi kerak. Bitta harf topilib, doskadagi katakchalarga yozilgach so'zni yoki undagi qolgan harflarni topish o'quvchiga havola qilinadi. To'rtinchi raqamni olgan o'quvchining o'rnini boshqasi egallaydi. Bir harfni to'g'ri topgan o'quvchi komandasiga bir ball keltirib, yana xaltadan kartochka olib, o'yinni boshidan boshlaydi.

O'yinlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanar ekanmiz, uning 3 jihatiga e'tibor qaratiladi.

1. O'yin – mashq.
2. O'yin – topishmoq.
3. O'yin – musobaqa.

Geografiya darslarini qiziqarli va ko'rgazmali o'tkazishda karta va geografik atlasdan foydalanish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarni kartadan foydalanish va uni o'qiy olishga o'rgatish, ularda geografik bilimlarga qiziqish ko'nikmasini tug'diradi, lekin kartani o'qish ko'nikmasi osonlik bilan egallanmaydi. Geografik kartalarni o'qishni bilgan o'quvchi geografiyani nazariy bilimlarini tez o'rgana oladi. O'quvchilar kartadan geografik ob'yekttni topa olmaslik hodisalari ham uchraydi. Xo'sh, bu holda nima qilish kerak, qanday qilsa o'quvchi kartadan kerakli ob'yektlarni tez topadigan bo'ladi. Bunda geografik o'yinlar yordam beradi. O'yin turlari juda xilma xil bo'lib o'quvchilarning qiziqishini, fanga bo'lgan e'tiborini oshiradi, bolada bilim jihatdan ham emas, balki ruhiy jihatdan ham ancha samarali holatlarni ko'rishimiz mumkin, o'quvchilarni bilimini oshiribgina qolmay, ularning ta'lim-tarbiyasini, zehni, xotirasini o'tkirlaydi, ularni topqirlik, tezkorlik, chaqqonlik xususiyatlarini ancha mukammal o'sishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta talim maktablarining geografiya fani darsliklari.
2. Internet malumotlari.



АХОЛИ ГЕОГРАФИЯСИ: КЕЧА ВА БУГУН

Mavlyanberdiyeva Sayyora Boboxanovna

Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi 39-son umumiy o'rta ta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi geografiyasining fan sifatida shakllanishi, aholi geografiyasi bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar, uning tarixi va rivojlanish jarayonlari haqida malumotlar berilgan. Bu fanga katta hissa qo'shgan olimlar va ularning asarlari haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: aholi geografiyasi, tarix, aholi, asar, aholi, iqtisodiy geografiya, sotsiologiya, fan, antropogeografiya, geografik tadqiqotlar, mutaxassis.

Aholini o'rganish, u haqida bilimlar to'plash juda qadimiy tarixga ega. Antik davrga oid qo'lyozmalarda dunyodagi turli davlatlar tabiati, aholisi, xo'jaligi, shaharlari, aholining turmush tarzi, urf-odatlar haqida sayohatchilar, savdogarlar, elchilar hikoyalari asosida to'plangan ma'lumotlar uchraydi. Bunday qimmatli tarixiy asarlarga I asrda Strabon tomonidan (17 kitob) yaratilgan “Geografiya”, II asrdagi Ptolomeyning “Geografiya” kitobi misol bo'la oladi.

Yer kurrasida aholi soni va ularning yashash maskanlari ko'payib borishi bilan aholi haqidagi bilimlar, ularni o'rganuvchi fanlar ham ko'payib bordi. Aholi geografiyasi ijtimoiy fanlar majmuasiga kiruvchi iqtisodiy geografiya bag'rida shakllandi. XVIII asrgacha geograflar aholini o'lkashunoslik doirasida o'rgangandilar. Keyinchalik aholi geografiyasi tadqiqotlari takomillashib, rivojlanib borgach u (sotsial) ijtimoiy geografiya predmetiga aylandi.

Aholi geografiyasining alohida fan sifatida shakllanishi XIX asr oxirlaridan boshlandi. Ushbu davrda geografiya tarkibidan “Antropogeografiya” maktabi ajralib chiqdi. Uning asoschisi nemis geografi F.Ratsel edi. U o'zining “Antropogeografiya” asarida antropogeograflarning asosiy vazifasi “shaxs va xalqning ruhi hamda jismiga tabiat ta'sirini o'rganishdir” deb belgilaydi. Ular nafaqat insoniyat, hatto davlatlarning rivojlanishi ham tabiat qonunlari asosida sodir bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradilar.

Aholi geografiyasining shakllanishida fransuz geografi Vidal de la Blash tomonidan yaratilgan “inson geografiyasi” maktabi ham ahamiyatlidir. Mazkur maktab vakillari antropogeograflardan farqli o'laroq aholi va tabiatning o'zaro munosabatlarini, hodisalarini o'rganishda tabiiy omillar bilan bir qatorda iqtisodiy, tarixiy va psixologik omillarni ham o'rganish lozirligini ta'kidlaydilar. Ana shu maktab asosida aholi geografiyasining shaharlar geografiyasi, qishloqlar geografiyasi, emigratsiya geografiyasi kabi tarmoqlari shakllandi.

Jahon geograflari, aholishunos mutaxassislari tomonidan ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Anglo-amerika mutaxassislari D. Forrester rahbarligida “Geografiya gorodov”, “Dinamika razvitiyagoroda”, B.J.Garker, D. Xarved, S.Gamilton, P.Xagget va boshqalar “Model v geografii”, fransuz geograflari tomonidan “Ocherki po geografii gorodov” shular jumlasidandir.

Aholini o'rganish uchun rus olimlari tomonidan ham XIX asrning oxirgi choragi va XX asr boshlarida aholi geografiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazilgan. 1883 – 1885-yillarda P.P.Semenov-Tyanshanskiy rahbarligida besh tomlik “Geograficheskoye-statisticheskoye slovar” chop etilgan bo'lib, unda Rossiyada o'sha paytda mavjud bo'lgan barcha shaharlar va qishloq maskanlari ta'riflangan. XIX asrning oxirgi choragida L.I.Mechnikov tomonidan yozilgan “Sivilizatsiya i velikie istoricheskie reki (1889 g)” kitobi ham aholi geografiyasi bo'yicha bajarilgan ahamiyatli ishlardan hisoblandi. Unda aholi jamiyat rivojlanishini va madaniyatni taqsimlanishida suv yo'llarining muhim o'rin tutishini ifodalaydi. Kitobda insoniyat jamiyatining shakllanishida Nil, Tigr, Yefrat, Xind va Ganga, Xuanxe va Yansze daryolari tabiatning kompleks ta'sirini tahlil etgan. XX asrning 40-yillaridan boshlab aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning mustaqil tarmog'i sifatida rivojlana boshladi. Bu borada R.M.Kabo va N.N.Baranskiylar tadqiqotlari alohida o'rin egallaydi. N.N.Baranskiy geografik tadqiqotlarda ishlab chiqarishning asosini tashkil etgan, ham ishlab chiqaruvchi kuch ham iste'molchi sifatida namoyon bo'lgan aholini o'rganish lozimligini qayd etgan.

Aholi geografiyasi rivojlanishining dastlabki yillarda shahar va shahar aholi manzilgohlariga e'tibor kuchaytirildi. O.A.Konstantinov, V.V.Pokishevskiy, Y.G. Saushkin, keyinroq V.G.Davidovich va boshqalar shaharlarni o'rganishga muhim xissa qo'shganlar. Har tomonlama qishloq aholisi



joylashishiga ta’rifni N.I. Lyalikov tomonidan 40-yillar oxirida birinchi marta berildi. Keyinchalik, bu yo’nalishga S.A.Kovalev o’zining juda katta mehnatlari bilan kirib keldi. Uning qishloq aholi manzilgohlarini tipologiyalashtirish, qishloq aholisi joylashuvida o’ziga xos metodikalari, qishloq aholi manzilgohlari tizimidagi qator yo’nalishlari shular jumlasidandir.

Hozirgi davrga kelib qator geograflar aholi geografiyasini iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning shoxchasi, tarmog’i deb hisoblamoqdalar. Uning predmeti qilib aholi tarkibi va takror barpo bo’lishidagi geografik farqlar, aholining hududiy tarqalishi va joylashuvi, aholi madaniyati turli tizimdagi geografik farqlar, mehnat resurslarini hududiy guruhlari va ulardan foydalanishdagi geografik farqlar; aholi maskanlari va ularning hududiy tizimi kabilar ko’rsatilgan. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda aholi, aholi manzilgohlari, aholiga xizmat ko’rsatish sohalari, sotsial blok tarkibiga kiritilgan holda iqtisodiy blok elementlari bilan birgalikda umumiy tizimni tashkil etadi. Demak, aholi geografiyasini ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning muhim bir tarmog’i sifatida qarash o’rinlidir. Har qanday hududiy-ijtimoiy-iqtisodiy tizimda aholi muhim rol o’ynaydi. Sababi biron bir hududdagi ishlab chiqarish insonsiz rivojlanmaydi yoki yaratilgan mahsulot uning iste’molisiz o’z yakunini topmaydi.

Aholi geografiyasining muhim predmeti bo’lgan aholining takror barpo bo’lishi, uning demografik omillari va hududiy jihatlarini o’rganish, aholi migratsiyasi bo’yicha R.A.Ubaydullaeva, M.Qoraxonov, I.Mullajonov, M.R.Bo’riyeva, L.P.Maksakova, R.B.Murtazina, Z.Tojjeva va boshqa aholishunos olimlar tomonidan o’tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalari ham qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.A.Bahriddinov. S.A.Zokirova. G.A.Abdurahimova. S.E.A’zam. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Toshkent. 2008.
2. T.P.Asanov. Aholi geografiyasi. Toshkent.2010
3. M.R.Borieva. Z.N.Tojjeva. S.S. Zokirov. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent. 2011.



GEOGRAFIYA FANIDAN O'QUVCHILARNI OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA TAYYORLASHNING YO'L-YO'RIQLARI

Shahzodaxon Nurbuvayeva

Andijon viloyati Marhamat tumanidagi
24-umumt' alim maktabining
oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi,
Andijon Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sohasidagi shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan o'quvchilarni oliy ta'lim muassasalariga tayyorlantirishning yo'l-yo'riqlari, test jarayonida eng yuqori ko'rsatkichga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi, unda foydalaniladigan metodlar haqida so'z yuritiladi. Maqola o'qituvchilar, abituriyentlar, fan olimpiadasi qatnashchilari va geografiya faniga qiziquvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: geografik masala, mavzulashtirilgan test, quiz bot testi, variant testlar, xarita bilan ishlash

Аннотация: В данной статье даются рекомендации о том, как подготовить студентов к высшему образованию, что является одним из самых актуальных вопросов в образовании на сегодняшний день, на что обратить внимание, чтобы добиться наивысших результатов в процессе тестирования, обсуждаются используемые методы. Статья предназначена для учителей, абитуриентов, участников научных олимпиад и широкого круга учащихся, интересующихся географией.

Ключевые слова: географическая задача, тематический тест, тест-викторина, варианты тесты, работа с картой.

Abstract: This article provides guidance on how to prepare students for higher education, which is one of the most pressing issues in education today, what to look for in order to achieve the highest results in the testing process. The methods used are discussed. The article is intended for teachers, applicants, participants of science Olympiads and a wide range of students interested in geography.

Keywords: geographical problem, thematic test, quiz bot test, variant tests, map work.

Hozirgi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'lim sifat va samaradorligiga erishish, PISA tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish, fan olimpiadalariga e'tiborni kuchaytirilishi, maktablarning reytingini ularda bitirayotgan o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalariga kirish soni bilan belgilanishi kabilar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Ilm olish bejizga igna bilan quduq qazishga o'xshatilmaydi. Chunki sabr bilan har bir narsaga alohida e'tibor qaratib, tinimsiz izlanib va takrorlab o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishiladi. Bitta fanni puxta o'zlashtirish, har qanday test topshiriqlarini 95% dan yuqori holatda bajara oladigan darajaga yetkazish uchun kamida uch yil shug'ullanish talab etiladi.

Men 1999-yildan buyon ta'lim sohasida faoliyat yuritib kelaman hamda shu yillar davomida har yili men tayyorlagan o'quvchilar oliy ta'lim muassasalari talabalari bo'lib kelmoqdalar. 22 yillik ish tajribamdan kelib chiqqan holda geografiya va tarix yo'nalishiga topshiradigan o'quvchilarni oliy ta'lim muassasalariga tayyorlash jarayonidagi o'zim qo'llaydigan ayrim masalalar, jarayonlar haqida o'rtoqlashmoqchiman.

Geografiya va tarix yo'nalishiga topshiradigan o'quvchilar geografiya fanidan oliy ta'lim muassasalariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun avvalo 5-sinf boshlang'ich tabiiy geografiya kursidan har bir mavzuni ipidan-ignasigacha o'rganib borishlari lozim. Mavzu atrofida berilgan xarita va rasmlarni, qo'shimcha ma'lumotlarni, savol-topshiriqlarni diqqat bilan ko'zdan kechirib, ularga javob topishlari kerak. Men o'quvchilarning har bir o'qigan mavzularini og'zaki savol-javob qilaman hamda ularni qiynagan, tushunmagan qismlarini tushuntirib boraman. Har bir mavzu yuzasidan mavzulashtirilgan test beraman, javoblarini tekshirib to'g'ri va xatolarini aniqlayman, qayerlarga e'tibor berish kerakligini aytaman. Mavzularni tugatgach, darslik oxirida berilgan geografik atama va terminlarning izohli lug'atini ko'rib chiqamiz. Mavzularni o'rganish jarayonida 5-sinf atlasidan mavzuga oid xarita va ma'lumotlarni birma-bir ko'rib chiqamiz va yodlab borishlarini nazorat qilaman. Darslikda berilgan geografik obyektning koordinatasini



aniqlash, havo harorati va bosimi, havoning nisbiy va mutlaq namligini aniqlash, ufq tomonlari hamda shamol yo'nalishini aniqlashga oid geografik masalalarni o'quvchilar bilan birgalikda ko'rib chiqamiz va mustahkamlash uchun uyga shu mavzularga oid masalalar berib boraman. 5-sinf darslik va atlasini tugatgach mustahkamlash uchun xarita va mavzular asosida tuzilgan aralash testlardan foydalanaman hamda o'quvchilarning reytingini, egallagan o'rnini chiqarib beraman. 1-o'rinni egallagan o'quvchini alohida rag'batlantiraman. Bu holat o'quvchilarda raqobat muhitini yaratadi hamda jiddiy tayyorgarlik ko'rishga undaydi.

so'ng 6-sinf “Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursi bilan birma-bir shu tartibda tanishib chiqamiz. Atlasning har bir xaritasini ko'rib chiqish bilan birgalikda yozuvsiz xaritaga yoddan o'quvchilarning oldidagi atlaslarni olib qo'ygan holda birma-bir har bir materik va okeanni, litosfera plitalarini, dunyoning iqlim mintaqalari va tabiat zonalari xaritalarini chizdirib ko'raman. Yozuvsiz xaritadan geografik obyekt va joy nomlarini so'rayman, ular topishadi, kim ko'p topish musobaqasini o'tkazamiz. Bu holat o'quvchilarning qiziqishlarini oshiribgina qolmasdan geografiya fanining tili hisoblangan xaritani puxta bilishlariga va oliy ta'lim hamda undan keyingi ish faoliyatiga zamin yaratadi.

7-sinf geografiya darsligi va atlasini, yozuvsiz xaritasi bilan ham shu tartibda shug'ullanib boraman. Atlas va darslik oxiridagi ilova hamda jadvallarni birma-bir ko'rsatib yod oldiraman, ular yuzasidan og'zaki savol-javob o'tkazib o'zim tuzgan test topshiriqlarini berib qanday o'zlashtirganliklarini sinab ko'raman. O'tkazadigan har bir mashg'ulotlarim davomida bir mavzuga oid ikkitadan geografik masalalar bilan tanishib ishlanish yo'llarini tushuntirib beraman. O'rta Osiyo tuproqlari, o'simliklari, hayvonot olami, tabiat zonalari mavzularini o'rganish uchun ko'proq vaqt ajratamiz. Bu mavzularning har biri uchun bitta mashg'ulot to'liq ajratiladi. O'rta Osiyo tabiiy xaritasini yoddan yaxshi bilishlari uchun uchta mashg'ulot davomida qayta-qayta chizib beradilar. O'zbekistonning har bir tabiiy geografik okrugi xaritasini birma-bir chizib chiqamiz va qanday o'zlashtirganliklarini sinash uchun yozuvsiz xaritaga nuqta qo'yib, tabiiy geografik obyektlar, foydali qazilma konlari, suv havzalari so'raladi.

8-sinf geografiyasi darsligi bilan ishlash jarayonida mavzu ichida berilgan chizma, diagramma, xaritalar, qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishib boramiz. Atlas ma'lumotlarini o'rganib yozuvsiz xaritada yoddan chizadilar. Har bir iqtisodiy rayon birma-bir chizib yod olinadi. Atlas va darslikdagi ikki xil uchraydigan ma'lumotlarga ham alohida e'tibor beriladi. Darslik tugatilganidan so'ng, umumiy takrorlash o'tkaziladi. Darslikni puxta o'zlashtirish uchun bitta mashg'ulot alohida ajratilib, darslikning boshidan oxirigacha savol-javob o'tkaziladi va aralash test olinadi. Aralash testda 5-6-7-8- sinf darsliklari va atlas, geografik masalalardan iborat 30 ta test topshiriqlari beriladi. Bunda ham o'quvchilarning reyting ballari aniqlanadi.

9-sinf darsligi boshqa sinf darsligiga nisbatan ma'lumotlarga boy bo'lganligi hamda raqamlar, davlatlarning turli sohalardagi o'rni turlicha bo'lganligi uchun 5-6-7-8-sinflarda har bir mashg'ulot uchun uchtdan mavzuni o'rganib kelishni topshiriq qilib bergan bo'lsam, bunda ikkitadan ortiq mavzu o'qimaslikni aytaman, o'ta puxta har bir narsani tushunib umuman adashmaydigan darajada bilish zarurligini, test jarayonlarida hayajon bosgan taqdirda ham ikkilanmasdan to'g'ri javobni belgilash, 0.1 ball ham oliy ta'limga kirish-kirmaslikni hal qilishini uqtiraman. Atlasdagi har bir xaritani hamda iqtisodiy geografik masalalarni ko'rib chiqamiz, yozuvsiz xarita bilan ishlaymiz. Mavzulashtirilgan test topshiriqlari bilan har bir mavzu bilan tanishganimizda ishlab boramiz. Jahonning ekologik xaritasi, yirik suv omborlari tasvirlangan xaritalar, region va davlatlar iqtisodiy xaritalariga alohida e'tibor qaratamiz.

10-sinf geografiya darsligi eng murakkab hamda ilmiy ma'lumotlarga boy bo'lgan darslik ekanligi barcha geograf ustozlarga ma'lum. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalariga tayyorlanayotgan o'quvchilar bir mashg'ulot uchun faqat bittadan mavzuni puxta o'zlashtirib kelishlarini talab qilaman. Tushunmagan qismlarini ular bilan birgalikda muhokama qilamiz. Har bir mashg'ulot jarayonida doskada ikkitadan o'quvchi turli mavzuga oid geografik masalalar bajarib borishadi, keyingi mashg'ulotlarda o'quvchilar almashtiriladi. Masalalarning qanday bajarilganligi birgalikda muhokama qilinadi.

Men o'quvchilarimga har bir mavzuni kamida uch marta o'qib, test bo'lib tushadigan joylarni ajratib alohida shug'ullanadigan daftarlariga muntazam yozib borishlarini tavsiya qilaman, chunki yozib o'rganish ham ma'lumotlarni xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishiga hamda e'tiborni kuchaytirishga sabab bo'ladi. Quruq yod olingan bilim xotiradan tez ko'tariladi, shuning uchun o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy geografik jarayonlarni to'g'ri tushunib o'zlashtirishlariga alohida



e'tibor beraman. Jarayonni tushungan o'quvchi testni fikrlab, noto'g'ri variantlarni olib tashlash yo'li bilan ham biz kutgan darajada yecha oladi. Shu bilan birgalikda hech kim e'tibor bermaydigan joylardan bir-biriga 10 tadan test tuzib kelishlarini topshiriq qilib beraman. Bu holat ham ularning qiziqish va e'tiborini kuchaytiradi. Test tuzish jarayonida bitta ma'lumotga ikki-uch marta murojaat qilishga to'g'ri keladi, bu orqali ma'lumot mustahkamlanadi.

Har bir darslik bilan kamida uch marta tanishib chiqamiz. Mening “Bir ko'rgan-tanish, ikkinchisi-bilish, uchinchi-qarindosh” degan aqidam bor. Qayta-qayta ko'rilganda avvalgi tushunmagan, e'tibor berilmagan joylar to'ldiriladi. Mashg'ulotlarimni haftada uch kun olib boraman va qolgan uch kunini matematika faniga ajratishlarini talab qilaman. Chunki, faqat mening fanimdan yiqqan ballari bilan abituriyent hech qachon davlat granti asosida o'qishga kira olmaydi, mening va o'zining mehnati natija bermaydi, sarflagan vaqti zoye ketadi.

Imtihonlarga uch oy muddat qolganda men har bir darslik va atlasdan tuzilgan, ikkitadan geografik masala qo'silgan 30 talik o'zim tuzgan variant savollarimni berib boraman. Har bir mashg'ulot davomida ularning reyting o'rnini aniqlab foizini chiqarib beraman. Bir oy davomida eng yuqoti natijaga erishgan o'quvchini alohida rag'batlantiraman. Geografiya va matematika fanlari uchun uch soat vaqt ajratib titul qog'ozga testni bo'yab borishadi. Bu o'quvchilarning vaqtini to'g'ri taqsimlashga, test bilan ishlash malakasini oshirishga, kamchiliklarini davlat imtihoniga qadar tugatishga, xuddi testda qatnashayotganday har bir mashg'ulotda mas'uliyat bilan yondashishga undaydi va biz kutgan natijani beradi hamda doirani qanday bo'yash malakasi hosil qilinadi, adashmaslikka o'rgatiladi.

Bu yil pandemiya sharoitidan kelib chiqqan holda men oliy ta'limga o'quvchiarni tayyorlash jarayonida telefonda quiz.bot orqali muntazam ravishda 30 ta savoldan iborat test topshiriqlari tuzib bordim. Quiz testlarining boshqa testlardan qulayligi o'quvchi javobining to'g'ri-noto'g'riligini birdaniga ko'rib borishi hamda berilgan vaqtda bajarishga o'rganishi, boshqa o'quvchilarga nisbatan o'zining tayyorgarlik holatini taqqoslab bilib borishidir. Yoz oylari davomida men 50 ta variantdan iborat (jami 1500 ta oddiy, o'rta va murakkab darajalarni o'z ichiga olgan) test topshiriqlarini tuzib o'quvchilarim bilan muntazam shug'ullanib bordim. Bu holat har yilgidek, bu yil ham o'z samarasini berdi hamda bitta o'quvchim O'zbekiston Milliy Universitetiga 1-o'rinda davlat granti asosida, bitta o'quvchim 3-o'rinda Andijon davlat universitetiga davlat granti asosida, bitta o'quvchim Qo'qon pedagogika institutiga davlat granti asosida, beshta o'quvchim to'lov-kontrakt asosida talabalikka qabul qilindi. Menimcha o'qituvchining eng katta orzusi shogirdlari va farzandlarining yutuqlarini ko'rib undan quvonish zavqida bo'lsa kerak. O'ylaymanki, men yuqorida tavsiya qilgan faoliyatim davomida qo'llagan, sinovdan o'tgan tajriba va metodlarim barcha kasbdoshlarimga yoqadi va ish jarayonlarida ularga qo'l keladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Marat Ziganov, Vladimir Kozarenko “Ratsional o'qitish maktabi” Moskva. 2001-yil
2. X. Niyozov “Geografiya o'qitish metodikasi” Ter DU, 2013-yil
3. T.R.Gerasimova, N.R.Neklyukova “Geografiya. Dastlabki kurs” Moskva. “Bustad” 2000-yil
4. P.G'ulomov, R.Qurboniyozov, M.Avezov, N.Saidova “Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi”. Toshkent. “Mitti yulduz”. 2020-yil
5. Sh.M.Sharipov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov “Amaliy geografiya”. Toshkent. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2017-yil
6. A.Qayumov, I.Safarov, M.Tillaboyeva, V.Fedorko “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi”. Toshkent. “O'zbekiston”. 2019-yil
7. P.Musayev, J.Musayev “O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”. Toshkent. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2019-yil
8. P.G'ulomov, A.Vahobov “O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi” Toshkent. “O'qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2017-yil
9. A.Soatov, A.Abdulqosimov, M.Mirakmalov “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi”. Toshkent. “O'qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2017-yil
10. WWW.Ziyo.net internet sayti

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 25-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000